



UDK: 81'23(045)(575/1)

Gulhayo I. BO'RIYEVA,

Dotsent v.b., Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: gulkhayo.buriyeva@mail.ru, ORCID:0009-0009-7541-3620

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti, Tillarni o'rganish kafedrasida dotsenti, PhD Z.A.Pulatova taqrizi asosida

THE ARTISTIC REPRESENTATION OF CHILDREN'S PSYCHOLOGY IN THE WORKS OF DR. SEUSS

Annotation

This article analyzes the features of the artistic representation of children's psychology in the works of Dr. Seuss. The study examines how the author reflects children's inner world, emotional states, imagination, and behavioral motivations through artistic means. It also analyzes symbolic images, as well as rhythmic and linguistic play used in the works as the main artistic tools for revealing children's psychology. The article aims to highlight the psychological approach in Dr. Seuss's children's literature and to substantiate its pedagogical significance.

Keywords: Dr. Seuss, children's literature, child psychology, artistic representation, character psychology, pedagogical-didactic approach, American children's literature, psychological depiction.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ДЕТСКОЙ ПСИХОЛОГИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДОКТОРА СЬЮЗА

Аннотация

В данной статье анализируются особенности художественного выражения детской психологии в произведениях Доктора Сьюза (Dr. Seuss). В исследовании рассматривается отражение внутреннего мира детей, их эмоциональных состояний, воображения и мотивов поведения посредством художественных средств в творчестве автора. Также анализируются символические образы, ритмические и лингвистические игры, используемые в произведениях как основные художественные средства раскрытия детской психологии. Статья направлена на освещение психологического подхода в творчестве Доктора Сьюза в детской литературе и обоснование его педагогического значения.

Ключевые слова: Доктор Сьюз, детская литература, детская психология, художественное выражение, психология персонажей, педагогико-дидактический подход, американская детская литература, психологическое изображение.

DOKTOR SYUZ ASARLARIDA BOLALAR PSIXOLOGIYASINING BADIY IFODASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Doktor Syuz (Dr. Seuss) asarlarida bolalar psixologiyasining badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda muallif ijodida bolalar ichki dunyosi, ularning hissiy holatlari, tasavvur olami hamda xulq-atvor motivlarining badiiy vositalar orqali aks ettirilishi o'rganiladi. Shuningdek, asarlarda qo'llangan ramziy obrazlar, ritmik va lingvistik o'yinlar bolalar psixologiyasini ochib berishdagi asosiy badiiy vosita sifatida tahlil qilinadi. Maqola Dr. Seuss ijodining bolalar adabiyotidagi psixologik yondashuvini yoritish va uning pedagogik ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Doktor Syuz, bolalar adabiyoti, bolalar psixologiyasi, badiiy ifoda, qahramon ruhiyati, pedagogik-didaktik yondashuv, Amerika bolalar adabiyoti, psixologik tasvir.

Kirish. Jahon bolalar adabiyoti taraqqiyotida bolalar ruhiyati va psixologik dunyosini badiiy tasvirlash masalasi muhim o'rin tutadi. Bolalar uchun yaratilgan asarlar nafaqat estetik zavq bag'ishlashi, balki yosh avlodning ruhiy, axloqiy va intellektual rivojlanishiga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Shu jihatdan bolalar adabiyotida qahramonlarning ichki kechinmalari, hissiy holatlari, dunyoni idrok etish xususiyatlari hamda yosh davriga xos psixologik jarayonlarning badiiy aks ettirilishi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, XX asr Amerika bolalar adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Doktor Syuz (Theodor Seuss Geisel) ijodi bolalar psixologiyasini o'ziga xos badiiy vositalar orqali ifodalashi bilan ajralib turadi.

Doktor Syuz asarlarida bolalarning qiziquvchanligi, tasavvur olamining kengligi, mustaqil fikrlashga intilishi, qo'rquv, quvonch, hayrat va mas'uliyat kabi psixologik holatlar badiiy obrazlar, fantastik qahramonlar va ramziy voqealar vositasida yoritilgan. Yozuvchi bolalar ruhiyatining nozik jihatlarini chuqur anglagan holda, ularni sodda va qiziqarli syujetlar orqali ifodalashga erishgan. Natijada uning asarlari nafaqat badiiy-estetik, balki pedagogik va psixologik ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bolalar adabiyotini psixologik yondashuv asosida tadqiq etish, xususan, Doktor Syuz asarlarida bolalar psixologiyasining badiiy ifodalanish usullarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada yozuvchining ayrim asarlari misolida bolalar psixologiyasining badiiy talqini, qahramonlar ruhiyatining tasvirlanish xususiyatlari hamda ushbu tasvirlarning pedagogik-didaktik ahamiyati tahlil qilinadi.

Tadqiqot maqsadi - Doktor Syuz asarlarida bolalar psixologiyasining badiiy ifodalanish xususiyatlarini, qahramonlar ruhiyatini tasvirlash usullarini hamda ularning pedagogik-didaktik ahamiyatini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Doktor Syuz asarlarida bolalar psixologiyasining aks etishiga xizmat qiluvchi badiiy vositalar va obrazlar tizimini aniqlash hamda tahlil qilish.

Yozuvchi asarlarida bolalarga xos bo'lgan tasavvur, qiziquvchanlik, qo'rquv, mustaqil fikrlash va o'zlikni anglash kabi psixologik holatlarning badiiy ifodalanish xususiyatlarini o'rganish.

Doktor Syuz qahramonlari ruhiyatining shakllanishi va rivojlanishida pedagogik-didaktik g'oyalarning o'rini baholash.

Yozuvchi asarlaridagi bolalar psixologiyasi tasvirining tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatini aniqlash hamda uning zamonaviy bolalar adabiyotidagi o'rini yoritish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Doktor Syuz ijodi jahon bolalar adabiyotshunosligida keng tadqiq etilgan bo'lib, olimlar uning asarlaridagi badiiylik, didaktiklik va bolalar ruhiyatini tasvirlash mahoratiga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, Philip Nel [16] o'zining "Dr. Seuss: American Icon" nomli tadqiqotida yozuvchining bolalar dunyoqarashini chuqur anglagan holda fantastik obrazlar va ramziy syujetlar orqali muhim ijtimoiy hamda axloqiy g'oyalarni ilgari surganligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, Doktor Syuz asarlaridagi qahramonlar bolalarning kundalik ruhiy kechinmalari va hayotiy tajribalarining badiiy ifodasidir.

Donald Pease [17] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa yozuvchining asarlari bolalarning mustaqil fikrlashi, tasavvuri va shaxs sifatida shakllanish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Olim Doktor Syuz ijodida bolalarga nisbatan hurmat bilan yondashish tamoyili ustuvor ekanligini qayd etadi. Bu jihat yozuvchining qahramonlarni faol, fikrlovchi va muammolar yechimini topa oladigan shaxslar sifatida tasvirlashida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bolalar psixologiyasi masalalari esa L.S. Vygotskiy [18], J. Piaget [19] va E. Erikson [20] kabi psixolog olimlarning nazariy qarashlari asosida keng o'rganilgan. Vygotskiy bolalarning tasavvur va ijodkorlik qobiliyatlari ularning ruhiy rivojlanishida muhim o'rin tutishini ta'kidlagan bo'lsa, Piaget bolalarning dunyoni idrok etish jarayonlari yosh davrlariga ko'ra o'zgarib borishini asoslab bergan. Mazkur nazariy qarashlar Doktor Syuz asarlaridagi qahramonlar ruhiyati, fantaziyasi va qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham bolalar adabiyotining pedagogik va psixologik jihatlari o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mavjud. Biroq Doktor Syuz asarlarida bolalar psixologiyasining badiiy ifodalanishi masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli mazkur maqolada yozuvchining turli asarlari misolida bolalarning tasavvur dunyosi, qiziquvchanligi, qo'rquvlari, o'zlikni anglash jarayonlari va axloqiy tanlovlari badiiy talqinining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Doktor Syuz asarlarida bolalar psixologiyasining badiiy ifodalanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida adabiyotshunoslik va psixologiya fanlarining zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini bolalar psixologiyasiga oid L.S. Vygotskiy, J. Piaget va E. Eriksonning ilmiy qarashlari hamda bolalar adabiyotini tahlil qilishga doir adabiyotshunoslik konsepsiyalari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, psixologik tahlil, badiiy matn tahlili, tavsifiy va interpretatsion metodlar qo'llanildi. Xususan, Doktor Syuzning "The Cat in the Hat" [1], "Horton Hears a Who!" [2], "Oh, the Places You'll Go!" [3], "The 500 Hats of Bartholomew Cubbins" [4], "McElligot's Pool" [7], "What Was I Scared Of?" [8] kabi asarlaridagi qahramonlarning ruhiy kechinmalari, tasavvuri, qiziquvchanligi, qo'rquv, mustaqillik va o'zlikni anglash kabi psixologik holatlari badiiy vositalar orqali tahlil qilindi. Shuningdek, asarlardagi obrazlar tizimi, ramziy ifodalari va syujet qurilishi bolalar psixologiyasini aks ettirish nuqtai nazaridan o'rganilib, olingan natijalar umumlashtirish va tizimlashtirish usullari yordamida ilmiy xulosalarga keltirildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida Doktor Syuz asarlarida bolalar psixologiyasining turli jihatlari o'ziga xos badiiy usullar orqali yoritilgani aniqlandi. Yozuvchi bolalar ruhiyatini tasvirlashda murakkab psixologik tushunchalarni ilmiy terminlar yordamida emas, balki fantastik obrazlar, qiziqarli voqealar, ramziy syujetlar va bolalar dunyoqarashiga yaqin bo'lgan poetik ifoda vositalari orqali aks ettiradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, adibning aksariyat asarlarida bola obrazi passiv kuzatuvchi emas, balki voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi, muammolar yechimini topa oladigan va mustaqil qaror qabul qiladigan faol shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu holat ayniqsa "The 500 Hats of Bartholomew Cubbins" hamda "Bartholomew and the Oobleck" [5] asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur asarlarda Bartholomew obrazi oddiy bola bo'lishiga qaramasdan, kattalardan ko'ra dono, mulohazali va jasurroq shaxs sifatida gavalantiriladi. U hokimiyat vakillarining xatolarini anglaydi va haqiqatni himoya qilish orqali jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Bu esa yozuvchining bolalarni mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli inson sifatida ko'rganligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari Doktor Syuz ijodida bolalar tasavvuri va fantaziyasiga alohida e'tibor qaratilganini ham ko'rsatdi. Xususan, "And to Think That I Saw It on Mulberry Street" [6] hamda "McElligot's Pool" asarlarida bolalar tafakkurining cheksiz imkoniyatlari, voqelikni o'ziga xos tarzda qayta yaratish qobiliyati va ijodkorlik salohiyati yorqin tasvirlangan. "Mulberry Street" hikoyasidagi Marko oddiy voqealarni ulkan parad va sarguzashtlarga aylantirsa, "McElligot's Pool" asarida kichik va iflos hovuzni tasavvur kuchi yordamida noyob baliqlar va ajoyib mavjudotlarga boy ulkan olam sifatida ko'radi. Bu holatlar bolalar psixologiyasiga xos bo'lgan ijodiy fikrlash, optimizm va chegarasiz fantaziya xususiyatlarining badiiy ifodasidir. Muallif bolalar tasavvurini shunchaki xayolparastlik emas, balki yangi g'oyalar va imkoniyatlar manbai sifatida talqin qiladi.

Shuningdek, yozuvchi asarlarida bolalarga xos bo'lgan qiziquvchanlik hissi ham markaziy o'rin egallaydi. "The Cat in the Hat", "The Lorax" [15], "Horton Hears a Who!" va "The Butter Battle Book" kabi asarlarda qahramonlarning voqealar rivojiga kirib borishi aynan qiziquvchanlik omili bilan bog'liq. Sally va uning ukasi notanish mushukning g'ayrioddiy harakatlariga qiziqish bildirsa, "The Lorax" asaridagi bolakay tabiat va daraxtlarning yo'q bo'lib ketish sabablarini bilishga intiladi. "Horton Hears a Who!" asarida esa Horton noma'lum ovozning manbasini aniqlashga harakat qilib, keyinchalik kichik mavjudotlarni himoya qilish mas'uliyatini zimmasiga oladi. Mazkur holatlar bolalarning atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan tabiiy ehtiyoji va bilim olishga intilishining badiiy talqini sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida qo'rquv, xavotir va ruhiy ikkilanish kabi psixologik holatlar ham yozuvchi ijodida keng yoritilgani aniqlandi. Jumladan, "What Was I Scared Of?" hikoyasida qo'rquvning inson ongida qanday shakllanishi va uni yengish jarayoni badiiy tarzda ifodalangan. Asar qahramoni o'zi harakatlanadigan shimdan qo'rqadi, biroq keyinchalik qo'rquvning asossiz ekanligini tushunadi. Natijada qo'rquv o'rini tushunish va hamdardlik hissi egallaydi. Bu esa bolalar psixologiyasida uchraydigan ko'plab xavotirlar aslida noto'g'ri tasavvur mahsuli bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, "Hunches in Bunches" [11] asarida qaror qabul qilishdagi ikkilanish va ichki kurash jarayoni tasvirlangan bo'lib, qahramon turli fikrlar orasida qolgan holda oxir-oqibat o'z ichki ovozigacha quloq solishni o'rganadi. Ushbu asarlar orqali yozuvchi bolalarni ruhiy muammolarni tan olish va ularni yengishga undaydi.

Tahlillar natijasida Doktor Syuz asarlarida o'zlikni anglash va shaxs sifatida shakllanish masalalari ham muhim

navzularidan biri ekanligi ma'lum bo'ldi. "Gerald McBoing-Boing" [9] asarida bosh qahramonning boshqalardan farq qilishi sababli o'zini jamiyatdan ajralgan holda his qilishi tasvirlangan. Biroq hikoya davomida aynan shu o'ziga xoslik uning muvaffaqiyatiga sabab bo'ladi. "Gertrude McFuzz" asarida esa qahramonning o'zidan qoniqmaslik hissi va boshqalarga o'xshash istagi orqali bolalarga xos bo'lgan taqqoslash va havas qilish holatlari yoritiladi. Asar yakunida qahramon o'zligini qabul qilish va o'z imkoniyatlarini qadrlash zarurligini anglab yetadi. Bu kabi syujetlar bolalarda sog'lom o'z-o'zini baholash va shaxsiy identifikatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "Oh, the Places You'll Go!", "I Had Trouble in Getting to Solla Sollew" [13] va "Thidwick the Big-Hearted Moose" [14] asarlarida bolalarning hayotiy qiyinchiliklarga munosabati, mustaqillikka intilishi va ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z o'rnini topish jarayoni tasvirlangan. Ushbu asarlarda muvaffaqiyat, muvaffaqiyatsizlik, yolg'izlik, ikkilanish, muammolardan qochish va ularni yengish kabi psixologik holatlar badiiy jihatdan chuqur yoritilgan. Natijada kitobxon nafaqat voqealarni kuzatadi, balki qahramonlar bilan birgalikda ruhiy o'sish jarayonini ham boshdan kechiradi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar Doktor Syuz asarlarida bolalar psixologiyasining asosiy komponentlari - tasavvur va fantaziya, qiziquvchanlik, qo'rquv va xavotir, o'zlikni anglash, mustaqil fikrlash, axloqiy tanlov va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar badiiy jihatdan mukammal ifodalanganligini ko'rsatadi. Yozuvchi mazkur psixologik holatlarni bolalar ongiga yaqin bo'lgan obrazlar, ramziy syujetlar, ritmik til va fantastik elementlar yordamida tasvirlagan. Shu sababli uning asarlari nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga ega bo'lib, balki bolalar ruhiyati va shaxsiy rivojlanishini o'rganishda muhim pedagogik-didaktik manba sifatida ham katta ilmiy qimmat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Doktor Syuz asarlarida bolalar psixologiyasi badiiy mahorat bilan, bolalarning dunyoqarashi va ruhiy kechinmalariga mos shaklda tasvirlangan. Yozuvchi o'z asarlarida bolalarga xos bo'lgan tasavvur va fantaziya,

qiziquvchanlik, qo'rquv, mustaqil fikrlash, o'zlikni anglash, axloqiy tanlov qilish va ijtimoiy mas'uliyat kabi psixologik holatlarni fantastik obrazlar, ramziy syujetlar hamda ritmik badiiy ifoda vositalari orqali yoritishga muvaffaq bo'lgan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yozuvchi qahramonlari bolalar ruhiyatining turli qirralarini aks ettirib, yosh kitobxonlarni fikrlashga, muammolarni mustaqil hal qilishga, o'ziga ishonishga va boshqalarga nisbatan hurmat hamda hamdardlik bilan munosabatda bo'lishga undaydi. Shuningdek, Doktor Syuz asarlarida bolalar psixologiyasining individual jihatlarini bilan bir qatorda uning ijtimoiy va axloqiy tomonlari ham badiiy talqin etilganligi kuzatildi. Bu esa yozuvchi ijodining nafaqat adabiy-badiiy, balki pedagogik va tarbiyaviy ahamiyatini ham belgilaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, Doktor Syuz asarlarini bolalar adabiyoti, bolalar psixologiyasi hamda pedagogika yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarda kengroq qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, uning asarlaridagi psixologik va didaktik g'oyalarni umumta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim tizimida bolalar adabiyotini o'qitish jarayoniga tatbiq etish tavsiya etiladi. Kelgusida esa Doktor Syuz ijodini boshqa jahon va o'zbek bolalar yozuvchilari asarlari bilan qiyosiy jihatdan o'rganish, shuningdek, uning asarlaridagi bolalar psixologiyasining lingvopoetik va kognitiv xususiyatlarini tadqiq etish mazkur sohadagi ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Amaliy takliflar: Tadqiqot natijalariga asoslanib, Doktor Syuz asarlaridan bolalar psixologiyasi, bolalar adabiyoti va pedagogika fanlarini o'qitishda qo'shimcha o'quv materiallari sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, yozuvchining bolalar ruhiyatini aks ettiruvchi asarlarini maktab va oliy ta'lim muassasalarining adabiyot hamda tarbiya mashg'ulotlariga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ushbu asarlar asosida bolalarda mustaqil fikrlash, empatiya, ijodkorlik va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan metodik qo'llanmalar ishlab chiqish ham samarali natijalar berishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Geisel T.S. The Cat in the Hat. – New York: Random House, 1957. – 61 p.
2. Geisel T.S. Horton Hears a Who!. – New York: Random House, 1954. – 72 p.
3. Geisel T.S. Oh, the Places You'll Go!. – New York: Random House, 1990. – 56 p.
4. Geisel T.S. The 500 Hats of Bartholomew Cubbins. – New York: Vanguard Press, 1938. – 56 p.
5. Geisel T.S. Bartholomew and the Oobleck. – New York: Random House, 1949. – 56 p.
6. Geisel T.S. And to Think That I Saw It on Mulberry Street. – New York: Vanguard Press, 1937. – 40 p.
7. Geisel T.S. McElligot's Pool. – New York: Random House, 1947. – 64 p.
8. Geisel T.S. What Was I Scared Of? – New York: Random House, 1961. – 64 p.
9. Geisel T.S. Gerald McBoing-Boing. – New York: Random House, 1950. – 48 p.
10. Geisel T.S. Gertrude McFuzz. – New York: Random House, 1950. – 64 p.
11. Geisel T.S. Hunches in Bunches. – New York: Random House, 1982. – 48 p.
12. Geisel T.S. Hop on Pop. – New York: Random House, 1963. – 64 p.
13. Geisel T.S. I Had Trouble in Getting to Solla Sollew. – New York: Random House, 1965. – 72 p.
14. Geisel T.S. Thidwick the Big-Hearted Moose. – New York: Random House, 1948. – 56 p.
15. Geisel T.S. The Lorax. – New York: Random House, 1971. – 72 p.
16. Nel P. Dr. Seuss: American Icon. – New York: Continuum International Publishing Group, 2004. – 302 p.
17. Pease D. Theodor Seuss Geisel. – New York: Oxford University Press, 2010. – 208 p.
18. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
19. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969. – 173 p.
20. Erikson E.H. Childhood and Society. – New York: W.W. Norton & Company, 1963. – 445 p.
21. Hunt P. Understanding Children's Literature. – London: Routledge, 2005. – 238 p.
22. Nikolajeva M. Children's Literature Comes of Age: Toward a New Aesthetic. – New York: Garland Publishing, 1996. – 240 p.
23. Nodelman P. The Hidden Adult: Defining Children's Literature. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2008. – 390 p.
24. Lynch-Brown C., Tomlinson C.M. Essentials of Children's Literature. – Boston: Pearson Education, 2014. – 432 p.